

**OILAGA PSIXOLOGIK MUHITNING TA’SIRI VA
EMOTSIONAL JARAYONLARNING O’RNI**

Nigina Beknazarova Zarip qizi

*Mirzo ulug’bek nomidagi O’zbekiston milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Oilaviy munosabatlar psixologiyasi yo’nalishi
1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaning mustahkam bo’lishida psixologik ta’sirlarning muhim o’rni va er xotin munosabatlarining bola tarbiyasidagi ahamiyati hamda jamiyatda oilaning shakillanishida ijtimoiy ta’sirlar va emotsiyonal muhabbatning yondashvi, hattoki oilaning fan sifatida o’rganilishi haqida batafsil berib o’tilgan.

Аннотация: В данной статье раскрывается важная роль психологических воздействий в стабильности семьи и значение супружеских отношений в воспитании детей, а также подход социальных воздействий и эмоциональной любви в формировании семьи в обществе, и даже изучение семьи как науки, были даны в деталях.

Annotation: In this article, the important role of psychological influences in the stability of the family and the importance of husband-wife relations in the upbringing of children, as well as the approach of social influences and emotional love in the formation of a family in society, and even the study of the family as a science, have been given in detail.

Kalit so‘zlar: Oila, emotsiya, konfliktlar, jamiyat, nikoh, sevgi, kuyunish, xursandchilik, baxt, yeg’i, qo’rquiv, hurmat

Ключевые слова: Семья, эмоции, конфликты, общество, брак, любовь, смех, радость, счастье, гнев, страх, уважение

Key words: Family, emotion, conflicts, society, marriage, love, laughter, joy, happiness, anger, fear, respect.

¹Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog’langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdır. Ko‘p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o’taydi. Oila — nikoh yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog’langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir.

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila> sayti

Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o’zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o’zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o’rnatadi. Oila tushunchasi butun jamiyat uchun juda muhim snaladi va hattoki uni maxsus fan sifatida ham o’rganiladi.

²Oila fan sifatida: Oila - ijtimoiy, tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamoa sifatida ikki jinsga mansub bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning birga hayot qurib nasl qoldirish, faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma’naviy va jismoniy kamol toptirib, hayotga mustaqil qadam qo‘yishiga sharoit yaratishdir. Bugungi kunda ming afsuski ushbu holatlarda ayrim quisirliklar vujudga kelmoqda faqatgina farzandli bo’lish yoki oiladagi urf odatlarni saqlab qolishga bo‘lgan e’tiqodlar ayrim qo‘shtirnoq ichidagi shaxslarga begonalahib ketayotganda

³Oila va oilaviy munosabatlar masalasi o‘tgan asrlarda ham davrning muhim muammosi bo‘lib kelgan. Zotan har bir inson umrining ko‘p vaqtini oilada o‘tadi. Shuning uchun oiladagi nozik ruhiy, hissiy – psixologik holatlar bolalar ichki hissiyotlari va ruhiyatiga katta ta’sir o‘tkazadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, bola tarbiyasiga eng avvalo ota – onaning shaxsi, hayot faoliyatlari, turmush tarzi bilan bирgalikda oiladagi psixologik muhitning ta’siri katta bo‘ladi. Oilada faqatgina ikki shxs emas balki bolalarning ham tarbiya jarayonlari aynan ota onaning oiladagi faoliyatiga bog’liqligini ko‘rish mumkin. Oilada er va xotinning janjallahushi ham bolaga zarar keltirishi va psixologik travmalarga oilb kelishi mumkinligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

⁴Oilada muhit va o‘zaro muloqot qanday bo‘lsa, bola xuddi shu muhit ta’sirida ulg‘ayadi. Umuman, har qanday oilaning tarbiyaviy ta’sirchanligi va samaradorligi ko‘p jihatdan oilada qaror topgan ota-onan o‘rtasidagi o‘zaro va bolalariga, axloqiy-ruhiy holatiga bog‘liq va nikoxning paydo bulishiga sababchi omillardan biri, ayniksa, bizning sharoitimizda, farzand tugilishidir. Farzandsiz er-xotin aloqalarini, umuman oilaviy munosabatlarini tasavvur qilish mushkul. Ilmiy manbalar tarixan insoniyat ota-onan va farzandlar munosabatlari uziga xos boskichlar va rivojlanish qonuniyatlarini boshidan kechirganligidan guvoxlik beradi. Bashar tarixi shundan dalolat beradiki, zamonlar osha ota-onaning bolaga nisbatan xususiy mulkday qarab, uning ustidan xukmronlik kilishi borgan sari farzand extiyojlari bilan xisoblashish, uning barcha istaklarini bajo keltirib, unga cheksiz gamxo’rlik kursatishgacha bulgan munosabatlarga aylangan. Ota-onan - bola munosabatlarini agar tarixiy davrlarga

² Oila psixologiyasi S.X djalilova taqdimoti.

³ “Yoshlarda shaxsiy namuna hissini shakllantirishda Liderlik qobiliyatlarining ahamiyati” mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy konferensiysi Materiallari to’plami Namangan 2021

⁴ Karimova V. K. Oila psixalogiyasi; pedagogika oliv o’quv yurtlari talabalari uchun darslik. - T: 2008

buladigan bulsak, ota-onaning bolaga yondoshuv usullari buyicha qator boskichlarni boshdan kechirganligini ko’rish mumkin.

⁵Amalda er va xotin ajralishga axd kilganda, ularda farzand bo’lmasa, FXDYO idoralariga murojaat qiladilar va ularning nikoxi bekor kelinadi. Agar o’rtada farzand bulsa, bu ishni sudlar xal qiladi, lekin aksariyat xolatlarda o’z-o’zini boshqarish organi bulmish maxalla va undagi yarashtirish komissiyasining a’zolari bo’lmish faollar bunga aralashadilar, arzimagan sabab bilan ajrimgacha borayotgan yoshlarga jamoatchilik monelik kursatadi. Sababi milliy mentalitetda farzandni tirik yetim kilib kuyish katta gunox xisoblanadi, shuning uchun azaldan urf bulgan tamoyil borki, yosh oilaning keyingi takdiriga kattalar aralashadi va oilaviy nizoning sabablari organilgach, bir karorga kelinadi. Oilaviy nizo yoshlarning, birinchi navbatda ayolning va farzandlarning salomatligi, tinchligi va birgalikda yashashlariga jiddiy rahna solgan xollarda (xiyonat tufayli bir-birinikechirolmaslik, ernenin tinimsiz alkogol iste’mol kilishi tufayli ayolni doimiy qiynashi, maishiy zaifavonlik, oila byudjetiga erkak ulushining qo’shilmasligi kabi) jamoatchilik ayolning xuquqlarini ximoya kiladi va maxallaning uzi ayol, uning farzandlari takdirini belgilash, ularni ijtimoiy ximoya kilish maksadida bu ishga aralashadi. Joylardagi xotin-kizlar faollari oxirgi yillarda aynan shu masalalarda uz-uzini boshkaruv organlarining odilona faolligini oshirishga aloxida e’tibor berib kelmoqda.

⁶Oilaviy munosabatlar psixologiyasi yosh oilalarda er-xotin munosabatlari o’ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo’lgan er-xotin munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu oiladagi er-xotinlik munosabatlari boshqa oiladagi er-xotin munosabatlariga mutonosib bo’lishi mumkin. Negaki yosh oila qurgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha taomilga ega bo’lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlardan tashkil topaganligi hisoblanadi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishining umumiy mexanizmlarga oid tegishli ma'lum otlar keltirib o’tilgan. Er va xotinlarning oiladagi muloqoti, shaxslararo muloqotning umumiy qonuniyatlariga bo’ysunish bilan birga, avvalgi ishdan tashqari, bo’sh vaqtlarini birgalikda o’tkazish bilan shartlangan o’ziga xos xususiyatlariga ham ega. Hamkasblar, o’rtoqlar, dugonalar do’stlar va sevishganlar hamma vaqt ham birga bo’lish imkoniyatiga ega emaslar, qaytanga, o’z muloqotlarini o’z lari xohlagan vaqtlarida biroz kam aytirib, hatto uzib (to’xtatib) qo'yishlari ham mumkin (uchrashuvga borishi lozimligini «unitib» qo'yish, kutilmaganda «juda band» bo’lib

⁵ Karimova V. K. Oila psixologiyasi; pedagogika oliv o’quv yurtlari talabalari uchun darslik. - T: 2008

⁶ Sh.Qo’chqarov .Oilada shaxslar aro va er- xotinlik munosabatlarida muloqotning tutgan o’rni va ahamiyati.Openscience. ISSN 2181- 0842

qolishi mumkin va sh.k). Er-xotinlar esa ko'pincha bunday imkoniyatlardan mahrumdirlar. Ular bir xonadonda, ko'pincha bir xonada birga bo'lishga «mahkum» etilgan. Albatta, bu gaplar ko'pchilik yoshlarimizda (ayniqsa, bir-birlarini sevuvchi yoshlarda) ishonmaslik, tushunmovchilik, e'tiroz tug'dirishi mumkin, chunki ular, o 'zing uchun aziz, sevimli bo'lgan odam bilan birga bo'lish, uning yonida bo'lish «majburiyati» bu eng orziqib kutilgan orzuning ro'yobga chiqishi-ku deb hisoblashlari mumkin. Shu sababli vujudga keladigan tushinmovchiliklar nafaqat intim munosabat, jinsiy aloqa, balki ancha ochiq, yaqin, ma'naviy muloqotlarga ta'sir ko'rsatadi. Intim (fransuz tilida - intime - «yaqin», «qulay», «ko'ngildan», lotinchada intim uz - «chuqur», «chin dildan») muloqotlar deyilganda, psixologiyada shunday muloqotlar tushuniladiki, unda odam boshqa odam oldida qandaydir bir ijtimoiy rolni (rahbar yoki xodim, sotuvchi yoki vrach va shu kabi) bajaruvchi emas, balki aynan «yagona» shaxs sifatida - nodir, takrorlanmas mavjudot sifatida namoyon bo'ladi, bunda u mutlaq oshkora, ochiq, hech narsadan qo'rqlaydi, o'zining ichki olami, o'zining barcha xususiyatlarini uyalmasdan namoyon qila oladi. Bunday muloqotda suhbatdosh odamlar o'rtasida chuqur va keng o'zaro oshkoraliq (jismoniy, psixologik, shaxsiy, ma'naviy) amalga oshadi. Bunda suhbatdoshlarning tanasi, fikri, hissiyoti, xarakteri va hayotiy rejali, qadriyatli va fikrlari ochiladi.

Er-xotin o'rtasidagi munosabatning yaxshi bo'lishi haqida mamlakatimiz yetakchi psixologlaridan biri G.B.Shoumarov ham o'z izlanishlari natijasida oilaning mustahkam bo'lishi, er-xotinning baxtiyor, tinchtotuv yashashlarida o'zaro qovushuvi muhim rol o'ynaydi degan fikrlarni bayon etganlar. O'zaro qovushishlarni shartli ravishda uchta tarkibiy qismga ajratish: 1. Biologik qovushuv. 2. Psixologik qovushuv. 3. Sotsial (ijtimoiy) qovushuvlari deb ko'rsatgan.

⁷Psixologik manbalarda sevgiga asoslangan munosabatlarning bir kator turlari va tipologiyasi keltirilgan. Biz bu urinda J.Lining 6 xilli munosabatlar nazariyasini keltirishni joiz deb bildik. Ularning dastlabkisi - Eros, bu romantizm va xissiy mayllarga asoslangan muxabbat bulib, undan kuzlangan asosiy maksad - sevgilisining visoliga erishish va u bilan yakin, jinsiy munosabatda bulishdir. Mania - bir tomonning ikkinchi tomon mex,ri va muxabbatiga erishishi uchun xamisha xavotir va intiklik bilan boglik bulgan talabchan, intik xissiyotidir. Ludis – uziga karatilgan, xudbinlarcha muxabbat, bunda sevgiga erishmokchi bulgan shaxe nima kilib bulsa xam suyuklisining visoliga erishmokni kuzlaydi. Storge - dustona, mustaxkam va samimiyl xisga asoslangan bir-biriga yakin, anchadan buyon tanish bulgan odamlar Urtasidagi sevgi. Agape - biror obyektga nisbatan intiklik, sabr-kanoat bilan boshdan kechirilayotgan iloxiy sevgidir. Nixoyat, Pragma fakat shu inson bilan yashagandagina

⁷ Karimova V. K. Oila psixaloyigasi; pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. - T: 2008

xayotdagi barcha maqsad-muddaolariga erishish mumkinligini anglagan, xayotiy, anik muljalli, shaxsiy xudbinlikdan xoli bulgan toza sevgidir.

Xulosa qilib aytganda oilaviy munosabatlarning ko’pi psixologik xususiyatlar bilan bog’liq hisoblanadi. Insonlar jamiyatda munosib oila qurib yashashlari . umuman olganda oiladagi barcha psixologik jarayonlar olingan tarbiya , ijtimoiylashuv jarayonlariga ham bog’liqdir. Agar oilada er va xotin munosabatlari mustahkam bo’lsa ular baxtli bo’lishga intilishsa va bir birlarini tushunib yashashsa albatta oilani mustahkam qilishga erishiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Qo’chqarov .Oilada shaxslar aro va er- xotinlik munosabatlarida muloqotning tutgan o’rni va ahamiyati.Openscience. ISSN 2181- 0842
2. Karimova V. K. Oila psixalogiyasi; pedagogika oliy o’quv yurtlari talabalari uchun darslik. - T: 2008
3. Oila psixologiyasi S.X djalilova taqdimoti.
4. “Yoshlarda shaxsiy namuna hissini shakllantirishda Liderlik qobiliyatlarining ahamiayati” mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy konferensiyasi Materiallari to‘plami Namangan 2021
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila> sayti